

## SABZAVOTCHILIKDAGI ISLOHOTLAR VA YANGI NAVLARNING YARATILISH TARIXI

Hasanova Nishona Normurotovna,  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.031>

*Annatatsiya: Ushbu maqolada dehqonchilikning asosiy tarmoqlaridan bo'lgan sabzavotchilik sohasidagi bugungi kundagi islohotlar, yangi sabzavot navlarining yaratilishi, sabzavotlarning tarixi bayon etilgan. Shuningdek, sabzavot, poliz ekinlarini yetishtirishdagi muhim jihatlar va ularni yaratilish tarixi haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.*

*Tayanch atamalar: sabzavotchilik, issiqxona, mahalliy seleksiya, kartoshkachilik, dehqonchilik, kredit, eksport, import.*

### ИСТОРИЯ РЕФОРМ ОВОЩЕЙ И СОЗДАНИЕ НОВЫХ СОРТОВ

Хасанова Нишона Нормуротовна,  
Докторант, Бухарский государственный университет

*Аннотация. В данной статье описаны современные реформы в области овощеводства, которое является одной из основных отраслей сельского хозяйства, создание новых сортов овощей, а также история овощей. Также освещены сведения о важных аспектах выращивания овощей и бобовых культур и истории их создания.*

*Ключевые слова: садоводство, кредит, экспорт, импорт, овощеводство, теплица, местная селекция, картофелеводство.*

### HISTORY OF REFORMS IN VEGETABLES AND CREATION OF NEW VARIETIES

Hasanova Nishona Normurotovna,  
Doctoral student of Bukhara State University

*Annotation. This article describes today's reforms in the field of vegetable growing, which is one of the main branches of agriculture, the creation of new varieties of vegetables, and the history of vegetables. Also, information about the important aspects of the cultivation of vegetables and pulse crops and the history of their creation is highlighted.*

*Key words: gardening, credit, export, import, vegetable growing, greenhouse, local selection, potato growing.*

**KIRISH.** Sabzavotchilik dehqonchilikning sabzavot ekinlarini yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Sabzavotchilik dehqonchilikning boshqa tarmoqlaridan farq qiladi, jumladan sabzavotchilikda ekinlar ochiq va himoyalangan(yopiq) yerlarda yetishtiriladi, aksariyat bir mavsumda hosil beradigan ekinlar ekiladi. Sabzavot ekinlari ochiq maydonlarda (bahor, yoz va kuz davrlarida), sabzavot hamda urug', yopiq yerlarda sabzavot olish uchun yetishtiriladi. Sabzavotchilikda yetishtiriladigan ekinlar turining ko'pligi biologik xususiyatlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda 70 ga yaqin turdag'i sabzavot ekinlari yetishtiriladi va qishloq xo'jaligida salmoqli o'rinni egallaydi.

**TAHLIL VA METODLAR.** Ma'lumki mamlakatdagi mavjud tabiiy iqlim sharoiti qishloq xo'jalik mahsulotlarini xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariiga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishda ustivor yo'naliishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarga sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustivorligidan dalolat beradi. Xususan, so'nggi yillarda bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388 va 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tastiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli farmonlari hamda 2018-yil 17-oktabrdagi meva

sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3978, 2019-yil 14-martdag'i "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jalik kopperatsiyasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239 qarorlarini kelrirish mumkin. Bugungi kunda respublikamizda yetishtirilayotgan 80 turdan ziyod qishloq xo'jalik mahsulotlari dunyoning 71 ta davlatiga eksport qilinmoqda. O'zbekiston dunyoda sabzi yetishtirish bo'yicha 3-o'rinn, bodring yetishtirish bo'yicha 7-o'rinn, olcha va anjir yetishtirish bo'yicha 8-o'rinda turadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.** Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida qulupnayning 3 ta yangi navi yaratildi. O'zbekistonlik olimlar yozning issiq kunlariga bardoshli bo'lgan qulupnayning 3 ta yangi navini yaratishdi. Mazkur navlar issiqxonada hamda ochiq maydonda yetishtirish uchun mo'ljallangan. Ular yilning 5-6 oyi davomida hosil beradi. Yozning issiq kunlariga bardoshli "Dildor" navi, yil davomida ochiq maydonda bir marta hosil beradigan "Kamola" va "Dilnoz" navlari mahalliy seleksiya yo'li bilan yaratilgan. Shu bilan ushbu navlarning ko'chatlarini yetishtirish yo'lga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda qulupnayning "Uzbekistanskaya", "Kulver" "Tashkentskaya" "Zenga-zengana" navlari mavjud. 2014-yil "O'zbekiston go'zali", 2018-yida introduksiya qilingan qulupnayning "Beautiful", "Redgountel", "Kobra", 2020-yilda "Medvey" navlari davlat reyestriga kiritilgan. Toshkent, Namangan, Andijon va Samarqand viloyatlarida qulupnayzorlar keng tashkil qilinib, maydonlari kengaymoqda. Shuningdek institut xodimlari aholi iste'moli va fermerlarga tavsiya qilish uchun shaftoli, olxo'ri, limon, oltinsimon qorag'at mevalaridan sukat (shakarlangan meva) tayyorlamoqda. Ma'lumotlarga qaraganda bu mevaning vatani Fransiya hisoblanadi. Madaniylashgan qulupnay O'zbekistonda XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'stirila boshlandi [5].

Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi sabzavot poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutining seleksioner olimlari mamlakat tuproq iqlim sharoitiga mos kartoshkaning ertapishar "Toshkent ertagi" navini ixtiro qildi. Ushbu nav mualliflari Rustam Nizomov, Jasur Rahmatullayev, Muhammadjon Rasulov va Dilshod Tursunovlar hisoblanadi. Yangi nav 2023-yilda Intelektual Mulk agentligi tomonidan patentlashtirildi. O'zbekistonda 2022-yil hosili uchun fermer va qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan kartoshkaning yangi serhosil "Surya", "Spunta", "Ranomi", "Passion", "Luiziana", "Orea" va "Konstanse" kabi xorijiy kartoshka navlari ekib yetishtirilgan. O'zbekiston hududida ekish uchun tavsiya etilgan va qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestriga kartoshkaning 152ga yaqin navlari kiritilgan bo'lib, shundan 19 navi mahalliy-ilmiy tadqiqot institutlari olimlari tomonidan yaratilgan. Tuproq iqlim sharoitlarini inobatga olib, o'zbekistonning 40 ta kartoshka yetishtirishga ixtisoslashtirilgan tumanlarida 71 ming hektar maydonda kartoshka yetishtiriladi. Shundan 23 tasida urug'lik kartoshka yetishtirishga, hamda 9 ta tumanning 39 ta hududlarida "Super-elita" va "Elita" urug'liklari yetishtiriladi.

Sabzi-sabzavot ekinlari orasida yetishtirishga qulayligi va o'ta foydaliligi bilan ajralib turadi. Shu bois ham respublikamizning ko'pgina yer maydonlarida uni ekib yaxshi hosil olinadi. U eng qadimdan ma'lum ildizmeva sabzavotlardan biridir. Bu sabzavot turini ilk marotaba Afg'onistonda iste'mol qilishgan bo'lib, u yerda u 4000 yil oldin yovvoyi ko'rinishda o'sgan. Sabzi avval binafsha rangda bo'lib 400 yil oldin u sun'iy ravishda biz o'rgangan apelsin rangga keltirilgan. Qizil sabzi ilk marotaba Gollandiyada paydo bo'lgan va undan faqatgina qirollar oilasi iste'mol qilishgan. O'rta asrlarda sabzining bir necha navi yaratilgan. Xususan XVII asrda sabzining eng yaxshi navlaridan biri "Karotel" olingan edi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi barcha viloyatlarda sabzining 29 ta navi ekiladi. Bularga "Amsterdam", "Lenochka", "Beloved", "Shante 2461", "Oltin kuz" "Imperator", "Kanada" hamda qishda saqlash uchun "Vitamin B-6", "Geranda", "Payshanba", "Moskva", "Forte", "Aristo" va boshqa ko'plab turlari yetishtirilmoqda [1].

Karam eng ommabop sabzavotlardan biri. U ko'plab xalqlarning oshxonasida yetakchi o'rinni egallaydi. Karam so'zi qadimgi yunoncha "kaputum"(bosh) so'zidan kelib chiqqan bo'lib bu so'z sabzavotning o'ziga xos shakliga ishora beradi. O'rta yer dengizi havzasasi atrofida yashaydigan xalqlar taomnomasida karam juda qadimdan buyon mavjud. Shunga e'tiboran, karamning vatani ushbu dengiz sohillari sanaladi. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida ham karamning shifobaxsh xususiyatlari keng yoritilgan bo'lib u orqali o'rta asrlarda yevropaliklar karamni dorivor ozuqa sifatida juda ko'p targ'ib qilgan. Bugungi kunda respublikamiz hududida karamning oq karam, gul karam, qizil karam, brakolli, kolrabi, Pekin karami, Xitoy bargli karami kabi turlari yetishtirilmoqda. Karamning 132 ta navi respublikada ekish uchun tavsiya etilgan va Qishloq xo'jalik davlat reyestriga kiritilgan. Xususan, oq karamning "Akbosh", "Adema F1", "Burbon F1", "Lyunskaya", "Navro'z", gul karamning "Kashmer

F1”, “Barselona F1”, “Talassa F1”, brokollining “Agassi F1”, “Ironman F1”, “Marafon F1” va boshqa navlari yetishtiriladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek bodring yetishtirish bo'yicha O’zbekiston dunyoda 7-o'rinda turadi. Bodring-bir yillik o't, o'simlik. Bodring madaniy holda 3 ming yil ilgari yetishtirila boshlangani haqida ma'lumotlar bor. Vatani Hindiston hisoblanib hozirgi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yetishtiriladi. Hindistonning turopik va subtropik rayonlarida, Himolay tog' yonbag'rlarida haligacha tabiiy holda o'sadi. Hindistondan Gretsiya va Italiyaga tarqalgan va keyinroq Xitoya ham kirib borgan. Yevropaning boshqa qismlariga rimliklar tomonidan olib kirilgan. Bodring Fransiya hududiga 9-asrda, Anglyaga 14-asrda, Shimoliy Amerika qit'asiga 16-asr o'rtalarida kirib borgan. Rossiya bodring Sharqiy Osiyo davlatlaridan 16-asrlarda kirib borgan degan taxmin bor. Lekin ayrim tarixchilarining fikriga qaraganda bodring rus o'lkkalariga 9-asrlarda ham ma'lum bo'lgan. Ekvadorda eng yirik hajmdagi bodringlar yetishtiriladi. Ilk bor yil bo'yi bodring yetishtirish imkonini beruvchi issiqxonasi qadimiy Rimda imperator Fiberiya uchun maxsus yaratilgan. Chunki imperator har kuni bodring yeyishni yaxshi ko'rgan. Rossiyaning Nejin shaharida bodring uchun yodgorlik o'rnatalgan. Har yili 27-iyul kuni dunyo miqyosida xalqaro bodring kuni sifatida bayram qilinadi. Bugungi kunda mamlakatimizda bodringning asosan F1 hosildor duragay nav, “Gulnoz”, “Parad”, “Konkurent”, “Navro'z”, “F1 Alibi” va “F1 Ayaks”, “Orzu” navlari yetishtirilmoqda. “F1 Alibi” va “F1 Ayaks” Gollandiya duragaylari bo'lib, 2001-yil davlat reyestriga kiritilgan. Konserva va salatlar uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari “Benefit F1”, “Alekseyevich F1” “Barmoq bilan bola” “Emelya F1” “Droplet” “Elegant” “Aelita” “Agat” “Movir 1” kabi o'nlab turlari mavjud [2].

Respublikamizda pomidor yetakchi sabzavot ekinlaridan hisoblanadi. 2014-yil ma'lumotlariga ko'ra ushbu ekinning jami ekiladigan yer maydoni 75,4 ming hektarga yaqin bo'lib, olingen hosil 1,6-1,7 mln tonnani tashkil etadi yoki har yili gektar yerdan olingen hosil 21,2-22,5 tonnaga to'g'ri keldi. 2012-2014-yillarda pomidorning istiqbolli, transportbop yangi navlari tanlov sinovidan o'tkazildi. Tadqiqotlar obyekti sifatida “Osiyo”, “Sovg'a”, “MJ-7” navlaridan foydalanildi. Qiyosiy nav “Surxon 142”, eng yuqori umumiy hosildorlik “Sovg'a” va “Osiyo” navlarida kuzatildi.

Bu sabzavotning tarixiga to'xtaladigan bo'lsak pomidorning vatani Janubiy Amerika qit'asining Peru, Ekvador va Chili mamlakatlari hududlari hisoblanadi. 1-bo'lib Meksikada madaniy holda yetishtirila boshlangan. U yevropaga yevropalik savdogarlar tomonidan dastlab Ispaniya, Portugaliya keyinchalik Italiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarga ham olib keltingan. Pomidor zaharli o'simlik hisoblanib, bog'bonlar tomonidan faqat dekorativ o'simlik sifatida yetishtirilgan. 18-asr o'rtalarida esa Rossiya ham keng yetishtirila boshlangan. O'rta Osiyoga shu jumladan O'zbekistonga ham pomidor Rossiya orqali kirib kelgan.

Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi Sabzavot poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti olimlari Buxoro viloyatida ushbu hududning tuproq iqlim sharoitiga mos pomidor navlarini yetishtirish bo'yicha tadqiqot olib borildi [4]. Vazirlik tajriba sinov jarayonlarida erishilgan natijalar haqida ma'lumot berdi. Qayt etilishicha “Bobkant F1”, “Tomsk F1”, “Lojain F1”, “Red stone”, “Seraj F1”, “Mustaqillik 28”, “Rio Grande” kabi navlar iyul oyining issiq ob-havo sharoitidan muvaffaqiyatlari o'tib, tajriba sinov jarayonida yaxshi ko'rsatgichlarni namoish etmoqda. Institut olimlarining ta'kidlashicha asosiy sabzavot ekini bo'lgan pomidor salqinsevar o'simlik bo'lgani uchun havo harorati +40 darajadan oshsa o'sish va rivojlanishdan to'xtaydi.

XULOSA. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kuchli issiq oqibatida pomidor mevasining ayrim qismlari quyosh urishiga, gullarning to'kilib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa pomidor sifatining pasayishiga olib keladi. Joriy yil Buxoro viloyatining ayrim qismlari xususan Jondor tumanida havo haroratining +47 daraja bo'lgan pomidorga alohida e'tiborni talab qildi. Soyalatish maqsadida pomidor ustidan makkajo'xorining qurigan poyasi, somon kabi yengil poyali o'simliklar bilan 5 sm qalinlikda to'shab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Balashev N.I., Zemon G.O. Sabzavotchilik, -Toshkent: -1977 yil.

Ayupov R. “Bodring yetishtirish va qayta ishlash” nashriyot: Iqtisod moliya, 2007 yil

Hasanova N.N. Qishloq xo'jaligida donli ekinlar //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – T.

2. – №. 8. – C. 321-325.

east-fruit.com